Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

4. Korxona schot faktura hujjatlari.

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI JADALLASHTIRISH – KAMBAG’ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM SHARTI

Axmedov Nasiba Xasanovna
Farg’ona Davlat universiteti o’qituvchisi
Tel/teleg 916692901
nasibaahmedova9201@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada kambag’allikni qisqartirishning muhim sharti bo’lgan tadbirkorlik faoliyatini xar tomonlama rivojlantirishning jixatlari o’rganilgan. Shuningdek, bu masala doirasida chora-tadbirlar va aholi keng qatlamini qo‘llab-quvvatlash maqsadida xozirgi moliyaviy yordamlar haqidagi masalalar bayon etilgan.*

Калит сўзлари*: Tadbirkorlik, kambag’allik, ishsizlik, bandlik, kasb-xunar, daromad.*

Kirish. Yangi O”zbekiston jadal taraqqiy etar ekan, tadbirkorlik mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishida ozining yaratuvchilik, islohotchilik, novatorlik qudratini ko’rsatmoqda va shunga muvofiq o’rin egallab bormoqda. Mamlakatimiz prezidenti SH. Mirziyoyev aytganidek: “Tadbirkor bu- xaqiqiy fidoiy inson”[1].

Binobarin, tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy – iqtisodiy sohalardagi muammolarni hal qilib, ular taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi va katta ro’l o’ynaydi. U ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko’rsatish sohalarida yangi ish o’rinlarini yaratib, aholini ish bilan ta’minlash, ishsizlikni kamaytirishga hizmat qiladi. Bular orqali tadbirkorlik, jamiyat a’zolarini daromad manbalarini oshirish va turmush darajasini yaxshilashning manbaasi sifatida maydonga chiqadi. Shu bilan birgalikda tadbirkorlik aholi kambag’alligini qisqartirishda asosiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, bugungi kunda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish muammosi xammani qiziqtiradigan dolzarb mavzuga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mavzuni o’rdanishda tanqidiy nuqtai-nazardan qarash, iqtisodiy, mantiqiy tamoyillari, deterministic yondashuv va diskurs tahlil usulida ko’rib chiqildi. Shuningdek, ahborot manbaalarini o’rganishda va tadqiqotlarni amalga oshirishda tarixiy va mantiqiy usullar birligi, ilmiy abstraktsiyalash, tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili: - O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23-sentyabrda “Kambag’allikni qisqartirish va aholini turmush farovonligini oshirish

Published: 24.05.2025
Cite this article: Axmedov Nasiba Xasanovna (2025). Tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish – kambag’allikni qisqartirishning muhim sharti. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/340
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

borasidagi chora -tadbirlarini yangi bosqichga olib chiqish to’g’risida”gi P.F.-143- son Farmoni[2]; -“Kambag’allikdan farovonlik sari” dasturi (P.Q.330-son 23.09.2024) [3].

Asosiy qism. O’zbekistonda har yili yaratilayotgan yangi ish o’rinlarining yarmidan ortig’i tadbirkorlik xissasiga to’g’ri keladi. Aynan, tadbirkorlik aholini ish bilan bandligini, iqtisodiy farovonligini o’sishiga va ularni erkin yashashlari uchun katta hissa qo’shadi.

Binobarin, kambag’allikni qisqartirishning eng muhum yo’llaridan biri - bu tadbirkorlikni qo’llab - quvvatlash bo’lib, ular yaratgan daromadli ish o’rinlari kambag’allikni kamaytirishga yordam beradi. Keyingi besh yilda yurtimizda tadbirkorlar soni 285 mingdan 590 mingtaga ko’paygani esa , bitta tumanda 2,5 mingtadan ortiq yoki bir mahallada 50 ta tadbirkorlar sinfi shakillanganligini ko’rish mumkin.

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda kambag’allikni qisqartirish, aholi turmushi sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy barqaror rivojlanish bo’yicha bir qator chora - tadbirlar, konsepsiyalar va bular orqali strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, 2022- 2026 yillarga mo’jallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2026 yil oxiriga qadar mamlakatda kambag’allik darajasi ikki barobarga kamaytirilish rejalashtirilganligini ko’rishimiz mumkin. Bunga ko’ra, kambagallikni qisqartirishni bosh omili sifatida tadbirkorlikni rivojlantirishning, xususan, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, yakka tartibdagi tadbirkorlik, o’zini- o’zi band qilishlar xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyatini yanada jadal suratlar bilan rivojlantirish masalasi, kambag’allikni qisqartirish yo’llari bo’yicha ilmiy tatqiqotlar olib borilmoqda.

Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish quyidagi tadbirlarni xam o’z ichiga oladi:

- ”mahallabay” ishlash tizimi orqali oilalarning daromad manbaalarini, shu jumladan, tomorqa yerlardan foydalanish hamda daromadli mehnatga bo’lgan intilishi ehtiyojlarini “xonadonbay” o’rganish;
- band bo’lmagan aholini, ayniqsa, ishsiz yoshlar va xotin- qizlarning bu masaladagi muommolarini o’rganish;
- ularni kasb - hunar va tadbirkorlikka o’rgatuvchi kurslarga yo’naltirish va mehnat faoliyati bilan shug’ullanishga amaliy ko’maklashish;
- yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari va startab g’oyalarini yanada qo’llab - quvvatlashga qaratilgan kreditlar ajratish;
- kasanachilik ishlarini tashkil qilish va ularni qo’llab quvvatlash;

- uy sharoitida yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan yirik va o’rta miqyosdagi korxonalar o’rtasida sherikchilik mexanizmlarini shakillantirish ishlari maqsadga muvofiqdir yo’naltirilmoqda.

Bularga muvofiq mamlakatimiz xududlarida tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish uchun quyidagi masalalarga e’tibor berilishini taqozo etadi:

- O’z biznesini tashkil etgan tadbirkorlar ham katta – katta xarajatlar qilib, o’zi uchun mutaxassislar tayyorlashi kerak;

- Bir fuqaroni munosib ish bilan ta’minlashga harakat qilayotgan tadbirkorni davlat organlari moddiy jihatdan qo’llab- quvvatlashi ahamiyatlidir;

- Shular bilan birga, eng asosiysi el-yurimiz orasida va davlat idoralarida tadbirkorlarga nisbatan munosabat o’zgardi, jamiyatda ularning obro’si va mavqei kun sayin ortib bormoqda va bunixamma faxmlash shart;

Natijada ichki va tashqi bozorda mustahkam o’z o’rni, nufuzli brendiga ega bo’lgan haqiqiy tadbirkorlarimiz sinfi shakillanmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag’allikni qisqartirishda asosiy bosh manbasi bo’lib davlatning bu masaladagi olib borayotgan faol siyosatidir. Albatta, bizning fikrimizcha tadbirkorlikning jamiyatdagi egallab turgan o’rnini, mavqeini belgilashda faqat tanlangan biznes-sohalarning qanday bo’lishidan qa’tiy nazar, uning ijtimoiy taraqqiyotdagi funksonal ro’llaridan kelib chiqqan holda ish tutmoq darkorligi ta’kidlab o’tgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezitetining 2024 yil 23- sentyabirdagi “Kambag’allikni qisqartirish va aholini turmush farovonligini oshrish borasidagi chora-tadbirlarini yangi bosqichga olib chiqish to’g’risida”gi P.F.- 143- son Farmoniga”[2] muvofiq, “Kambag’allikdan farovonlik sari“ dasturi qabul qilinganligi hamda ushbu dastur ijrosini ta’minlash maqsadida, yangi bir qator turdagi moliyaviy yordamlar joriy etildi. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida aholini qo‘llab-quvvatlash maqsadida quyidagi moliyaviy yordamlar joriy etiladi:

* Ishsizlar va kambag‘al oilalar a’zolarini kasanachi sifatida ishga olgan tadbirkorlarga, har bir jalb qilingan kasanachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha 3 yilgacha muddatga foizsiz ssudalar beriladi;

* Kambag‘al oila a’zolari o‘z faoliyatini boshlashi uchun zarur asbob-uskunalarni xarid qilish maqsadida bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha 6 oydan 3 yilgacha muddatga foizsiz ssuda olishi mumkin;

* Dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan kambag‘al oilalarga suv quduqlari burg‘ilash, nasos agregatlari sotib olish, tomchilatib sug‘orish tizimini o‘rnatish va elektr tarmoqlarini tortish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravarigacha 5 yilgacha muddatga foizsiz ssudalar ajratiladi;

* Tadbirkorlar, agar 10 tagacha kambag‘al oilalarga o‘z tajribasini o‘rgatib, ularning doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishiga ko‘maklashsa, har bir kambag‘al oila uchun bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari, jami bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha grant olishi mumkin. Jazoni o‘tab bo‘lgan fuqarolar tadbirkorlik, hunarmandchilik va me’morchilik loyihalarini amalga oshirish uchun mehnatga haq to’lashning eng kam miqdorining 10 baravarigacha subsidiya olishi mumkin. Shunday qilib, hozirgi zamon tadbirkori – bu , har doim qaysidir yangiliklarga intilib, ularni moddiy ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etib turadigan, bozor raqobati saroitida tavvakal qila oladigan , o’z oldiga qo’ygan maqsadga erishish yo’lida , o’zi qilgan ishlarning barcha oqibatlari uchun javobgarlikni o’z zimmasiga olishga tayyor turgan, faol insondir”[3].

Xulosa va takliflar. Aholini, birinchi navbatda ishsiz yoshlar va ayollarni kasb- hunar va tadbirkorlikka o’qitish hamda, aholi tomorqalaridan samarali foydalanib, uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik va gulchilik kabi faoliyat turlarini yo’lga qo’yilsa, maqsadga muvofiq bo’lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O’bekiston Respublikasi Perezidenti Sh.Mirziyoyev 20-avgust kuni mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqoti.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23- sentyabrda “Kambag’allikni qisqartirish va aholini turmush farovonligini oshirish borasidagi chora -tadbirlarini yangi bosqichga olib chiqish to’g’risida”gi P.F.-143- son Farmoni.
3. P.Q.330-son 23.09.2024. “Kambag’allikdan farovonlik sari” dasturi.

BUXGALTERIYA HISOBI HAMDA AUDITDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

Urishev Baxtiyor Abdusamatovich,
TDIU Andijon fakulteti katta o‘qituvchisi
urishevbahtiyor1@gmail.com
Абдугофуров Боходир Абдурахмон угли
АКХАИ бухгалтерия хисоби ва аудит йуналиш талабаси

Bugungi kunda iqtisodiy faoliyatning globallashuvi va xalqaro integratsiya jarayonlari hisob-kitob, moliyaviy hisobot va audit tizimlariga bo‘lgan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Xalqaro bozorlarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar uchun hisob yuritishning yagona va tushunarli tizimi — xalqaro moliyaviy hisobot